



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-6-30-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qaroriga asosan, tumanda joriy yilda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1735,3 mldr.so‘m yoki 107,1 foizga (*1-chorak rejasi 398,6 mldr.so‘m*);
- xizmatlar hajmi 1280,1 mldr.so‘m yoki 115,8 foizga (*1-chorak rejasi 282,6 mldr.so‘m*);
- qurilish ishlari hajmi 376,4 mldr.so‘m yoki 106,8 foizga (*1-chorak rejasi 66,0 mldr.so‘m*);
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4258,0 mldr.so‘m yoki 104,7 foizga (*1-chorak rejasi 412,3 mldr.so‘m*) yetkaziladi.

Budjet daromadlari ijrosi bo‘yicha 2025-yil uchun 292,0 mldr.so‘m prognoz belgilangan (*1-chorak rejasi 70,1 mldr.so‘m*).

Fevral oyi uchun belgilangan 13,5 mldr.so‘m prognoz ko‘rsatkichi 26-fevral holatiga 10,7 mldr.so‘m yoki 79,0 foizga bajarilmoqda.

Kambag‘al oilalar va kambag‘allik darajasini pasaytirish bo‘yicha - 2025-yilda 1309 ta (*1-chorak rejasi 322 ta*) kambag‘al oilalarni kambag‘allikdan chiqarish hamda kambag‘allik darajasini 5,2 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kun holatiga platformaga 3554 ta kambag‘al oilalar reestri shakllantirilgan bo‘lsa, ularning 2871 tasiga (*81 foiz*) individual rejalar ishlab chiqilgan.

Aholi bandligini ta‘minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha 2025-yilda 30,2 ming nafar (*1-chorak rejasi 5,9 ming nafar*) ishsiz fuqarolarni bandligini ta‘minlash orqali, ishsizlik darajasini 5,4 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bugungi kun holatiga 3989 nafar aholi bandligi ta‘minlandi.

Tajribalar doirasida amalga oshirladigan ishlar bo'yicha "Sayxunobod" **tajribasi** bo'yicha 73 ta mahallada 40 tadan jami 2920 ta (*1-chorak rejasi 590 ta*) mikroloyihani amalga oshirish hamda buning hisobiga 5840 ta yangi ish o'rirlari yaratilishi begilab olingan. Yanvar-fevral oylarida 438 ta mikroloyihani ishga tushirish belgilangan bo'lib, 27-fevral holatiga 577 ta mikroloyiha platformaga kiritilib, shundan 481 tasi amalda ishga tushurildi.

Uychi tajribasi asosida tumanda 2025-yilda banklar tomonidan 72 ta (*1-chorak rejasi 9 ta*) uchrashuvlar o'tkazilishi belgilangan. Bugungi kun holatiga 6 ta uchrashuvlar o'tkazilishi natijasida 54 nafar aholi bandligi ta'minlangan.

Zarbdor tajribasi bo'yicha qiymati 112,0 mlrd.so'mlik 5 ta loyihani amalga oshirish va 465 ta ish o'rni yaratish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Bugungi kun holatiga shakllantirilgan loyihalarning 2 tasida qurilish ishlari olib borilmoqda. Qolgan loyihalarni qurilishini jaddallashtirish bo'yicha biriktirilgan vakillarga topshiriqlar berilmoqda.

G'ijduvon tajribasi asosida tumanda joriy yilda 9 ta mahallada loyihalar amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur mahallalarda 205 ta ish o'rinar yaratuvchi 9 ta loyiha shakillantirilgan. Hozirda ushbu shakllantirilgan loyihalardan 1 tasi (Avto car Chevrolet MChJ) ishga tushirilib, 10 ta yangi ish o'rni yaratildi. Qolgan loyihalarni ishga tushirish bo'yicha loyiha tashabbuskorlari bilan birma-bir joyiga chiqgan holda uchrashib tegishli ko'rsatmalar berib borilmoqda.

Tadbirkorlik dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar bo'yicha 2025-yila tadbirkorlik dasturlari doirasida 74 mlrd.so'm (*1-chorak rejasi 9 mlrd.so'm*) kredit mablag'lari ajratish rejalashtirilgan.

Bugungi kun holatiga dasturlar doirasida 239 ta holatda 4,4 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Jumladan:

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturi bo'yicha 14 ta holatda 1,3 mlrd.so'm;

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 225 ta holatda 3,1 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Xorijga tashkillashtirilgan tartibda ishga yuborish bo'yicha:

2025-yilda 2823 nafar (*1-chorak rejasi 436 nafar*) fuqarolarni xorijga ishga yuborish belgilangan. Bugungi kun holatiga 13 nafar fuqarolar xorijga ishga yuborilgan.

Davlat Investitsiya dasturi bo'yicha:

Farg'ona tumanida 2025-yilda umumiylar loyihalar qiymati 257,3 mln dollar bo'lgan 12 ta loyihalar doirasida 127,0 mln.dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirilishi belgilangan.

Farg'ona tumanida 91,7 ga yer maydonida maxsus iqtisodiy sanoat zona tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib barcha kerakli hujatlar to'plami tegishli tashkilotlarga taqdim etilgan.

Loyihalarni ishga tushirish bo'yicha:

2025-yilda qiymati 61,5 mln.dollar jami 32 dan ortiq loyihalar ishga tushirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu loyihalar amalga oshirilishi natijasida 4536 ta yangi ish o'rirlari yaratiladi.

Eksport bo'yicha:

Davlat Rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi "Farg'ona viloyatini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-son qaroriga muvofiq tumanga 2025-yilda 52,2 mln.dollar (qishloq xo‘jaligi 24,8 ming dollar, sanoat mahsulotlari 27,4 ming dollar) eksport hajmi belgilangan. Shundan, birinchi chorak uchun 3,8 mln.dollar tasdiqlangan.

Joriy yilning 28-fevral holatiga jami 996,5 ming dollar, shundan, 188,1 ming dollar qishloq xo‘jaligi hamda 808,3 ming dollarlik sanoat mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, tuman uchun belgilangan jami prognoz ko‘rsatkichlari bajarilmoqda.

Sharoiti og‘ir mahallalar infratuzilmasini yaxshilash doirasida - 2025-yilda sharoiti og‘ir mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida tumanda 7 ta - Beruniy, Mash’al, Birdamlik, Sh.Haqiqati, Yangi yo‘l, Zilol, va Do‘stlik MFYlarida jami loyiha qiymati 21,8 mlrd.so‘mlik qurilish ta’mirlash ishlari olib borilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda ushbu MFYlarda loyihalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish yuzasidan tuman hududida 2025-yil yakuniga qadar 13 ta, 5 va 7 qavatli, 555 xonodonli ko‘p qavatli uy-joylar qurib bitkazilishi rejalashtirilgan.

2025-yil 1-choragiga 2 ta 5 qavatli 50 xonodonli 2 ta 7 qavatli 112 xonodonli ko‘p qavatli uy-joylar qurib bitkazilishi rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda 11 ta ko‘p qavatli uy-joylarda qurilish ishlari olib borilmoqda. 2 ta ko‘p qavatli uy-joy qurish uchun yer maydoni auksion savdolariga chiqarilgan.

Tuman va boshqa aholi punktlari ko‘chalari holatini yaxshilash bo‘yicha:

2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 19,0 km ichki xo‘jalik yo‘llarini ta’mirlash rejalshtirilgan (*2-chorak rejasi 6,5 km*). Hozirgi kunda qurilish ta’mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashirilgan ko‘chalarining loyihalash ishlari olib borilmoqda.

Xonadonlarni ichimlik suvi tarmog‘iga ulash masalalarida 2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 1800 ta aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog‘iga ulash rejalshtirilgan (1-chorak rejasi 540 ta). Hozirgi kunda 466 ta aholi xonadonlari ichimlik suvi tarmog‘iga ulanib, belgilangan choraklik rejani 86 foizga bajarilishiga erishildi hamda qolgan aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog‘iga ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

Farg‘ona tumanida jami 27501 ta aholi xonadonlari hamda 338 ta ulgurji ichimlik suvi iste’molchilar mavjud. 2025-yil yakuniga qadar tuman aholisini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’milanganlik darajasini 82.7 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda tuman aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’milanganlik daroji 82.1 foizni tashkil etmoqda.

Quriladigan, rekonstruksiya va modernizatsiya qilinadigan elektr tarmoqlari uzunligi 2025-yil yakuniga qadar tumanda 23,5 km elektr tarmog‘i tortish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

2025-yil yakuniga qadar tumanda 17 ta elektr tarsnformatorlar o‘rnatish rejalashtirilgan (1-chorak rejasi 2 ta). Hozirgi kunda tuman hududida 2 ta transformatorlar o‘rnatilib, 1-chorak uchun belgilangan rejani 100 foizga bajarilishiga erishildi. Qolgan transformatorlarni o‘rnatish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

Farg‘ona tumani Damko‘l MFY Damko‘l ko‘chasiga 1 dona GRP yangidan qurish hamda Konchilar MFY Maftunkor ko‘chasida joylashgan 1 dona GRPni mukammal ta’mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda Damko‘l MFY Damko‘l ko‘chasiga 1 dona GRPning yangidan qurish uchun loyihalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Quriladigan va ta’mirlanadigan gaz taqsimlash punktlari bo‘yicha:

Farg'ona tumani O'zbekiston MFY Orzu ko'chasiga 1 dona GRP yangidan qurish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston MFY Orzu ko'chasiga 1 dona GRPning yangidan qurish uchun loyihalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Aholiga yetkazib beriladigan suyultirilgan gaz hajmi bo'yicha:

Tumanda 20414 ta suyultirilgan gaz bilan ta'minlangan aholi xonadonlari mavjud bo'lib 2025-yil yakuniga qadar jami 3429 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish rejashtirilgan (1-chorak rejasi 854.4 tonna). Hozirgi kunda tuman aholisini belgilangan reja grafikka asosan suyultirilgan gaz balonlari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda. 2025-yil boshidan buyon tuman aholisiga 590.9 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berilib, 1-chorak uchun belgilangan rejani 69 % ga bajarilishiga erishildi.

Paxta ekish va yetishtirish bo'yicha:

2025-yil uchun Farg'ona tumanida paxta ekish rejasi 5200 hektar bo'lib shundan 21000 tonna paxta yetishtirish rejalashtirilgan.

Boshoqli don ekish va yetishtirish bo'yicha:

2025-yil uchun Farg'ona tumanida boshoqli don ekish rejasi 6000 hektar bo'lib shundan 15500 tonna boshoqli don hosili yetishtirish rejalashtirilgan.

Yangi intensiv bog' va tokzorlar barpo qilish bo'yicha:

Farg'ona tumanidagi eskirgan, kam hosil bog'lar o'rniغا 2025-yilda yangi intensiv bog' va tokzorlar barpo etish uchun 1460 hektar rejalashtirilgan (*1-chorak rejasi 55 hektar*). Hozirgi kunga kelib hududlarda 55 hektar yangi intensiv bog' va tokzorlar barpo etildi.

Dala chetlarida ekin ekish tumanda 2025-yil uchun dala chetlarida ekin ekish rejasi 123 hektar belgilangan (*1-chorak rejasi 52 hektar*). Bugungi kun holatiga dala chetlariga 48,6 hektar ekib bo'lingan. Qolgan hektarlarga ekish ishlari davom etmoqda.

Tumanda tut daraxtlari ekish rejasi 2025-yilda 125600 tup tut ko'chati ekish belgilangan (*1-chorak rejasi 55 000 tup*).

Nasos stansiyalari va tik quduqlar atrofida davlat-xususiy sheriklik asosida baliqchilikni yo'lga qo'yishda, nasos stansiyalari va tik quduqlar atrofida davlat-xususiy sheriklik asosida baliqchilikni yo'lga qo'yish 2025-yil Farg'ona tumani uchun 1 dona (*1-chorak rejasi 0 dona*) qilib rejalashtirilgan. Ushbu davlat sherikchilik asosida Qo'riq MFY hududida nasos stansiyasi atrofida qilinadi.

2025-yilda tumanda 3574 hektar lazerli tekislash rejalashtirilgan (*1-chorak rejasi 1108 hektar*). Hozirgi kunga kelib 600 hektar maydonda lazerli tekislash ishlari olib borilgan.

Yerlarni o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish Farg'ona tumanida 2025-yil uchun yerlarni o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish rejasi 550 hektar (*1-chorak rejasi 55 hektar*).

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" dagi oilalar ulushi 2025-yilda 8,3 foizga (*1-chorak rejasi 9,9 foiz*). *Amalda 9,2 foizga bajarildi.*

Nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ularni ijtimoiylashtirish bo'yicha 2025-yil uchun 80 nafar nogironlarni bandiligini ta'minlash orqali ijtimoiylashtirish rejalashtirilgan. (*1-chorak rejasi 16 nafar*). Bugungi kun holatiga 37 nafar nogiron shaxslarni bandligini ta'minlash orqali ijtimoiylashtirishga erishildi.

Tibbiyot muassasalarini zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash bo'yicha:

2025-yilda tibbiyot muassasalarini 8,3 mlrd.so'mlik tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash rejalashtirilgan (*1-chorak rejasi 1,6 mlrd.so'm*). Bugungi holatiga 990.0

mln.so‘mlik tibbiy asbob-anjomlar (Raqamli rengen apparat, fiziorerapiya apparatlari) bilan ta’minlandi.

Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi:

2025-yil davomida tumanda maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilar qamrovini 86,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan (1-chorak rejasi 85,5 foiz). Yanvar-fevral oylarida reja 85,8 foizga bajarildi. Joriy yilning yanvar-fevral oylari holatiga 120 nafar 3-7 yoshli bolalar qamrab olindi.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim oladigan yoshlar bo‘yicha:

2025-yil uchun 1700 nafar yoshlarni dastur doirasida o‘qitish rejalashtirilgan (*1-chorak rejasi 350 nafar*). Bugungi kun holatiga 280 nafar yoshlar dastur doirasida o‘qitilishi ta’minlandi.

Turizm yo‘nalishi bo‘yicha:

2025-yilda tumanda xorijiy va ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha 205,5 ming nafar turistlarni jalg etish rejalashtirishgan (*1-chorak rejasi 20,5 ming nafar*).

Ayollarni asalarichilik, parandachilik, baliqchilik, issiqxona xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda o‘qitish “Sayxunobod tajribasi asosida:

“Sayxunobod tajribasi” asosida kasb-hunarga o‘qish istagini bildirgan 1292 nafar xotin-qizlardan 75 nafar xotin-qizlar turli yo‘nalishlarda jumladan:

-28 nafarini xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida;

-8 nafarini kasb-hunarga o‘qitish markazlarida;

-4 nafarini “Hunarmand uyushmasi” tomonidan kasb-hunarga o‘qitish;

-35 nafarini Lider tadbirkorlar tomonidan o‘qitiladigan qisqa o‘quv kurslarida o‘qitilinishi ta’minlanib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha bandligi ta’minlanib daromad topishga ko‘maklashildi.

Boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarga ko‘maklashish bo‘yicha ehtiyojmand 356 nafar boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarni 23 nafariga amaliy yordamlar ko‘rsatildi. Jumladan, 7 nafariga moddiy yordam, 3 nafariga davolanishga tibbiy yordam, 10 nafariga oziq-ovqat mahsulotlari hamda 3 nafariga huquqiy hamda psixologik yordamlar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimi X.Inomovning hisobotima’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Farg‘ona tuman hokimining o‘rnbosarlariga:

- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “mahallalar yettiligi” faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash va nazoratni kuchaytirish;
- “mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida aholi bilan doimiy muloqotlarni tashkil etib borish;
- tuman hududida “Sayxunobod”, “Uychi”, “G‘ijduvon”, “Zarbdor” tajribalari doirasida tegishli ishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish va samaradorligini

- oshirish, aholi tomonidan tomorqa va uy xo‘jaliklardagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘tkazilishini ta‘minlash;
- aholi muammolarini samarali hal etish, ma’naviy muhitni saqlash, ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o‘z vazifalarini bajarishda hamkorligini ta‘minlash;
 - aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan budjet va boshqa mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish va bu borada nazoratni kuchaytirish;
 - ishsiz fuqarolarning bandligini ta‘minlash, kredit ajratish masalalarida fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda bandligi ta‘minlanmagan yoshlar va xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish orqali bandligini ta‘minlash choralarini ko‘rish;
 - “mahalla yettiligi” bilan birgalikda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ro‘yxatida turgan fuqarolarning muammolarini o‘z vaqtida hal etish choralarini ko‘rish;
 - qarovsiz, nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta‘minlash;
 - sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
 - mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini yanada mustahkamlash maqsadida mas’ullar bilan birgalikda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazilishini ta‘minlash;
 - aholini tomorqadan unumli foydalanish, oilaviy tadbirkorlik, kichik sanoat va xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali, aholini daromadli qilish choralarini ko‘rishga;
 - fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganib chiqish, aniqlangan muammolarni qonuniy hal etish choralarini ko‘rish;
 - “Yashil makon” umummillyar harakati doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarga fuqarolarni keng jalb qilish orqali atrof-muhit tozaligi hamda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

3.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Сессия раиси



ABDURAXMONOV
ILXOMJON
AKBARALIYEVICH